

**BESH MUHIM TASHABBUS YOSHLARDA IJTIMOIYLASHUV
JARAYONINI TEZLATISHNING MUHIM OMILI**

*O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat
instituti “Madaniyatshunoslik” mutaxassisligi
2-bosqich magistranti Mavlonova Sarvinoz*

Annotatsiya: Ushbu maqolada besh muhim tashabbus yoshlarda ijtimoiylashuv jarayonini tezlatishning muhim omillari haqida soʻz yuritilgan.

Kalit soʻzlar: *besh muhim tashabbus, ijtimoiylashuv jarayoni, zamonaviy axborot texnologiyalaridan toʻgʻri foydalanish koʻnikmasini shakllantirish, kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish, xotin-qizlar bandligini taʼminlash.*

Yosh avlodga berayotgan bilimimiz vatanimiz kelajagi uchun bir poydevor hisoblanadi. Biz poydevorni qanchalik mustahkam qilsak, u shunchalik chidamli, har qanday vaziyatda qulamaydigan, yillar oʻtsada oʻz haybati bilan lol qoldiradigan bir koʻrinish kasb etadi. Bugungi kunda Prezidentimiz tomonida oʻtkazilayitgan islohatlar, farmon va farmoyishlar shu poydevorni imkon qadar mustahkamlash uchun qilinayotgan harakatlardir. Bugungi kunda global maydonda kechayotgan tahlikali jarayonlarga nisbatan faqat mustaqil va qatʼiy yondashuvga ega boʻlgan, maʼnaviy va jismoniy barkamol yoshlargina qarshi tura oladi.

Hozirgi kunda Milliy matbuot markazida “Prezidentning 5 muhim tashabbusi” doirasida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan matbuot anjumanlari tashkil etilmoqda.





2019-yilning mart oyida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan beshta muhim tashabbus ilgari surildi. Bu – yoshlarni madaniyat, san’at va sportga keng jalb etish, ularda zamonaviy axborot texnologiyalaridan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish, kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish, xotin-qizlar bandligini ta’minlash vazifalarini o‘z ichiga oladi.

Matbuot anjumanida “Prezidentning 5 muhim tashabbusi” ijrosi yuzasidan mas’ul bo‘lgan mutasaddi vazirlik, idora va tashkilotlar vakillari, jumladan, Yoshlar ishlari agentligi, Madaniyat vazirligi, Jismoniy tarbiya va sport vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, Yozuvchilar uyushmasi xodimlari amalga oshirilgan ishlar yuzasidan o‘z hisobotlari bilan ishtirok etdi.

Dastlab Toshkent viloyatining Bo‘ka tumani va Toshkent shahrining Uchtepa tumanida “Besh muhim tashabbus” tajriba sifatida joriy etildi, – deydi Yoshlar ishlari agentligi Markaziy apparatining besh tashabbus loyihalarini

muvofiglashtirish boshqarma boshlig'i Mansur Masharipov. — 42 ta tuman va shaharlarning 168 ta olis va og'ir ahvoldagi mahalla fuqarolar yig'inlarida bu tajriba muvaffaqiyatli amalga oshirildi. Shuningdek, birinchi tashabbus – yoshlarning musiqa, rassomchilik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirish bo'yicha yurtimizdagi mavjud 800dan ortiq madaniyat markazlarida 4522 ta to'garak faoliyati yo'lga qo'yilib, ularga 1762 ta musiqa jihozi yetkazib berilgan. Umumta'lim maktablarida tashkil etilgan 36503 ta to'garakka 1 million nafardan ortiq yoshlar qamrab olingan. Umumta'lim maktablarida tasviriy san'at va musiqa yo'nalishidagi 36 503 ta to'garaklarga 1,1 mln.nafar (18%) o'quvchi-yoshlar jalb qilingan. 3 mingdan ortiq musiqa jihozlari yetkazib berilgan.

Shu bilan birga matbuot anjumanida qolgan 4 yo'nalish yuzasidan ham qilingan ishlar to'g'risida ma'lumotlar berib o'tildi.

Hususan, ikkinchi tashabbus – yoshlarni jismoniy chiniqtirish va sport sohasidagi qobiliyatlarini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratib berish bo'yicha umumta'lim maktablarida 10 ta sport turi bo'yicha 49 196 ta sport to'garaklari faoliyati yo'lga qo'yilib, 1,2 mln nafar o'quvchi-yoshlar muntazam shug'ullanib kelishayotganligi hamda 254 ta Bolalar va o'smirlar sport maktablariga 328 875 nafar, 54 ta Sport turlariga ixtisoslashtirilgan sport maktablariga 33 438 nafar o'quvchi-yoshlar jalb qilinganligi haqida ma'lumotlar aytib o'tildi.

Uchinchi tashabbus – aholi va yoshlar orasida kompyuter texnologiyalari va internetdan foydalanishni tashkil etish bo'yichayoshlarni kompyuter texnologiyalari va internetdan foydalanishini tashkil etish maqsadida 72 ta "Raqamli texnologiyalar o'quv markazi" faoliyati yo'lga qo'yilganligi ham yoshlarimiz uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda.

To'rtinchi tashabbus – yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular orasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha ham ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, "Ma'rifat karvoni" tadbirlari doirasida 3 mln dan ortiq kitoblar



yoshlarga yetkazib berildi, “Yoshlar kutubxonasi” rukni ostida 59 ta nomdagi 590 ming dona badiiy adabiyotlar chop etilib, respublikamizdagi barcha ta’lim muassasalari kutubxonalariga tarqatildi.

An’anaviy tarzda o’tkazib kelinayotgan “Yosh kitobxon” tanloviga 2017-2019-yillar davomida 2 mln. 170 mingdan ortiq yoshlar qamrab olinib, 8 nafar tanlov g’oliblari bo’lgan yosh kitobxonlar Prezident sovg’asi “Spark” avtomashinasi sovrindori bo’lganligi ham yoshlarimizni kitobxonlik ruhiga yana qaytganini yorqin isbotidir.

Tadbirda “Yosh kitobxon” tanlovining 2020-yilgi saralash bosqichlari 23-25-dekabr’ kunlari barcha tuman (shahar)larda o’tkazilishi to’g’risida ham ma’lumot berildi va bu jarayon online tarzda amalga oshirilishi aytib o’tildi.

Beshinchi tashabbus – xotin-qizlarni ish bilan ta’minlash ishlarini tizimli tashkil etish yo’nalishi ham eng dolzarb yo’nalishlardan biri bo’lib bugunga kelib Mahalla va oilani qo’llab-quvvatlash vazirligi va hamkor tashkilotlar tomonidan sohaga oid tizimli ishlar amalga oshirilayotganligi hususida qizg’in muzokaralar bo’ldi.

Ilk marotaba yosh xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshiri, gender tenglik va ular bandligini ta’minlash maqsadida “Qizlar ovozi” platformasi yaratildi,— deydi Mahalla va oilani qo’llab-quvvatlash vazirligi Oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash boshqarmasi boshlig’i Mukarram Nurmatova. — Forum doirasida mamlakat istiqboli uchun mas’uliyatni o’z zimmasiga olishga qodir qizlar safini kengaytirish orqali jamiyatda gender tengligini ta’minlash, shuningdek demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish borasidagi islohotlarda qizlar faolligini oshirish maqsadida joylarda “Qizlar ovozi” klubi tashkil etildi.

O’tgan davr mobaynida xotin-qizlar uchun jami 170 mingga yaqin ish o’rni yaratildi. Tijorat banklari va Xotin-qizlarni va oilani qo’llab-quvvatlash jamoat fondi mablag’lari hisobidan 172 mingdan ortiq xotin-qizlarga 4,9 trillion so’m kreditlar ajratildi.



Bugungi kunda yurtimizda 18 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan xotin-qizlar soni 3 596 406 nafarni tashkil qilmoqda. Joriy yilda 76,2 mlrd. so‘m imtiyozli mablag‘lar evaziga 76 198 nafar yosh xotin-qizlar ish bilan ta‘minlandi, shuningdek, 15 935 nafar yosh xotin-qizlar kasb-hunarga o‘rgatildi.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarni internetdagi zararli xurujlardan asrash, ularni axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishga o‘rgatish masalalariga ham alohida ahamiyat qaratish hamda ularni kelajagiga e‘tiborli bo‘lishimiz zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boltaboeva U., Sh U., Rahmonova N. CREATIVE PERSON-THE ROLE OF LIVE WORD IN EDUCATING AN ACTOR //European Journal of Arts. – 2019. – No. 3.
2. Boltaboyeva U., Rakhmonova N., Usmonov S. Characteristics of speech Art: problems and solutions //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2020. – T. 10. – No. 4. – C. 559-567.
3. <https://kun.uz/uz/news/2019/03/20/prezident-beshta-muhim-tashabbus>
4. <https://yuz.uz/uz/news/5-muhim-tashabbus-yoshlarga-qanot?view>

